

MAHALLA “YETTILIGI” – O‘ZBEKISTON IJTIMOIIY BOSHQARUVINING YANGI BOSQICHI



Toshkent Davlat Sharqshunoslik

Universiteti katta o‘qituvchisi PhD

V.E.Abirov

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi talabasi.

Azimbekova Fariza Rashidovna.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy boshqaruv tizimining yangi shakli — “Mahalla yettiligi” tizimi haqida so‘z boradi. Maqolada tizimning tarkibi, har bir a‘zosining vazifalari, joriy etilgan davrdan buyon kuzatilgan ijobiy natijalar, jumladan, kambag‘allik darajasining pasayishi va boshqaruv samaradorligining oshishi aniq faktlar asosida yoritilgan. Shuningdek, tizimni baholashda qo‘llanilayotgan KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) mexanizmi ham tahlil qilinadi. Maqola yakunida “Mahalla yettiligi”ning O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so‘zlar: Mahalla yettiligi, mahalla boshqaruvi, ijtimoiy xizmatlar, kambag‘allikni qisqartirish, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, KPI, ijtimoiy tizim.

Kirish Davlat boshqaruvi tizimi ham xuddi shunday, nazarimda. Uni ham vaqt o‘tishi bilan davr nafasi, zamon shiddatiga moslab o‘zgartirib turish, yangilanishlar kiritish zarurati tug‘iladi. Ammo ana shu islohotlar jarayonida ayrim o‘zgarmas qonuniyatlarga amal qilish kerak bo‘ladi. Bu o‘sha xalqning urf-odati, qadriyatlari, yashash tarzi, tafakkuri bilan bog‘liq. Bizdagi mahalla tizimi haqida ham shunday fikr aytish mumkin. Bu tizim xalqimiz tarixi bilan bevosita bog‘liq. Hozir uning o‘tmishi haqidagi faktlarni O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, keng qamrovli

strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston va Rossiya yetakchilari oliy darajadagi uchrashuvlar natijasida erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi hamda bo‘lajak ikki tomonlama tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

O‘zbekiston o‘zini ijtimoiy davlat deb e‘lon qilishi bilan har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini oldi. Bu mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta‘lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o‘sib-ulg‘ayib, yaxshi ta‘lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo‘lishi kerak. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 154-moddasi bilan 1-moddadagi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emasligi belgilandi. 154-moddaning o‘zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Boshqacha aytganda, bu norma O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligini kafolatlaydi. Xalq Konstitutsiyasi, deya e‘tirof etilgan Bosh qonunimizda O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani qat’iy belgilangani bejiz emas. Keyingi yillarda bu boradagi qonun hujjatlari, ijtimoiy dasturlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash xarajatlari sezilarli oshib, nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobar ko‘paydi. Har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojidan kelib chiqib yordam ko‘rsatish imkoniyati yaratildi va bu yo‘nalishda mutlaqo yangi hamda o‘ziga xos tizim ishga tushdi. Jumladan, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash usullari aynan shu maqsadlar uchun joriy etilgan, xotin-qizlar, yoshlar, umuman, ijtimoiy yordamga muhtojlar muammo va kamchiliklari manzilli o‘rganilib, ularni o‘z vaqtida va samarali hal etish choralari ko‘rilmoqda. Keksalar va muhtojlar, kam ta‘minlangan oilalarga yordam, mehr-muruvvat ko‘rsatish xalqimizning o‘lmas qadriyati hisoblanadi va bunday ezgu harakatlar bugun yangicha ma‘nomazmun kasb etyapti, amaliy harakatlar yanada takomillashtirilmoqda. “Besh muhim tashabbus”, “Har bir oila — tadbirkor”, “Obod mahalla”, “Obod qishloq”,

“Yoshlar — kelajagimiz” kabi dasturlar shu maqsadlar uchun xizmat qilayotganini alohida e’tirof etish lozim. Yuqoridagi fikrlar isbotini quyidagi raqamlarda ham ko‘rish mumkin: 2016-yildan 2022-yilgacha ijtimoiy nafaqalarga ajratilayotgan mablag‘ 10 barobar oshirildi. Natijada ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar soni 5,1 barobar ortib, 1,2 milliondan ziyod oilaga nafaqalar to‘lab kelinyapti. Shuningdek, 2021-yildan boshlab “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” orqali bunday nafaqalarni avtomatik tarzda tayinlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu, o‘z navbatida, shaffoflikni ta’minlash imkoniyatini yaratdi. Ijtimoiy himoya bilan bog‘liq jarayonlar mahalla miqyosida hal etilyapti. Xususan, “mahalla yettiligi” oilalardagi ijtimoiy muammoning sababi, ularga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlab, mavjud imkoniyatlarni baholab, ularni og‘ir vaziyatdan olib chiqish bo‘yicha ijtimoiy xizmatlarni safarbar qilyapti. “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasidan yordamlarni oilaning ijtimoiy ahvolini individual baholash asosida ko‘rsatish yo‘lga

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy boshqaruv tizimida mahalla instituti muhim o‘rin tutadi. 2023-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mahalla boshqaruvida yangi tizim — “Mahalla yettiligi” joriy etildi. Bu tizim mahalliy muammolarni joyida hal qilish, aholi bilan bevosita ishlash va ijtimoiy xizmatlarni yaxshilashga qaratilgan.

“Mahalla yettiligi”	tizimining	tarkibi	va	vazifalari
“Mahalla yettiligi”	quyidagi	yetti	vakildan	iborat:
1. Mahalla raisi – Mahallaning umumiy boshqaruvi, aholi farovonligini ta’minlash va ehtiyojmand oilalarga yordam ko‘rsatish.				
2. Hokim yordamchisi – Ishsizlikni kamaytirish, bandlikni ta’minlash va aholini kambag‘allikdan chiqarishga ko‘maklashish.				
3. Yoshlar yetakchisi – Yoshlarni sport, madaniyat va to‘garaklarga jalb qilish orqali ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish.				
4. Xotin-qizlar faoli – Ayollarni tadbirkorlik, kasanachilik va hunarmandchilikka jalb qilish orqali ularning iqtisodiy ahvolini yaxshilash.				
5. Profilaktika inspektori – Huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash.				
6. Ijtimoiy xodim – Yolg‘iz keksalar, nogironlar va boshqa muhtojlarga ijtimoiy xizmat				

ko'rsatish.

7. Soliq inspektori – Soliq bazasini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish va o'zini o'zi band qilganlarni kichik biznes toifasiga o'tkazishga ko'maklashish.

Bu tizim orqali mahallada 70 dan ortiq masala, jumladan, moddiy yordam va kreditlar, mahallaning o'zida hal etilishi mumkin bo'ldi. Tizim to'liq raqamlashtiriladi, bu esa samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Tizimning samaradorligi va natijalari 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda jami 9452 ta mahalla mavjud bo'lib, "Mahalla yettiligi" tizimida 51 137 nafar xodim faoliyat yuritmoqda. Bu tizim dunyoning boshqa davlatlarida mavjud bo'lmagan yagona model hisoblanadi. Tizim joriy etilgandan so'ng, kambag'allik darajasi 24 foizdan 12–13 foizga tushdi. Bu "Mahalla yettiligi"ning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

Tizimning boshqaruv mexanizmlari "Mahalla yettiligi" a'zolarining faoliyati asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholanadi. KPI ko'rsatkichlari O'zbekiston mahallalari uyushmasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. 2024-yil 1-yanvardan boshlab, "Mahalla yettiligi" a'zolarining ish haqi asosiy ish joyidan berish tartibi saqlab qolingan holda, KPI asosida baholash natijalaridan kelib chiqib, ular moddiy rag'batlantirib boriladi.

Mahalla yettiligi va 5 muhim tashabbus: uyg'un faoliyat Prezident tashabbusi bilan ilgari surilgan "5 muhim tashabbus" ham mahalla yettiligi faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlashda bu tashabbuslar yetakchi vosita hisoblanadi:

1. Yoshlarni musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va boshqa san'at turlariga qiziqtirish;
 2. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish;
 3. Aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;
 4. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni kitobxonlikka jalb qilish;
 5. Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash.
- 5 tashabbus olimpiadasi statistikasi (2024 yil):

Butun respublika bo‘ylab 1,5 milliondan ortiq yoshlar olimpiada doirasidagi tadbirlarda ishtirok etgan.

300 ming nafardan ortiq yoshlar sport yo‘nalishlarida qatnashgan, ulardan 7% i professional sport to‘garaklariga jalb etilgan.

120 mingdan ziyod ishtirokchi kitobxonlik bellashuvlarida faol bo‘lgan.

90 mingdan ortiq qizlar turli kasb-hunar va san’at to‘garaklariga a’zo bo‘lgan.

Qariyb 40 ming yosh dasturlash va IT bo‘yicha kurslarda qatnashgan.

Ushbu raqamlar orqali ko‘rinadiki, mahalla yettiligi va 5 tashabbus bir-birini to‘ldiruvchi samarali mexanizmga aylangan.

Xulosa: “Mahalla yettiligi” tizimi O‘zbekistonning ijtimoiy boshqaruv tizimida muhim o‘rin egallab, aholi bilan bevosita ishlash, muammolarni joyida hal etish va ijtimoiy xizmatlarni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Tizimning samaradorligi kambag‘allik darajasining kamayishi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilishida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa “Mahalla yettiligi”ning kelajakda yanada rivojlanishiga zamin yaratadi. Davlatimiz rahbari qayd etganidek, “Bugungi kunda hamma ish mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilinmoqda. Bu tizim bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda, unga qo‘shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu — albatta ham vakolat, ham mas’uliyat degani. Mahallalar — davlatimizning eng katta zamini”. Ayni yo‘nalishda joriy yilning o‘tgan o‘n oyi davomida qilingan ishlarni sarhisob qilsak, davlatning mahallaga e’tibori, har qanday masala mahalla darajasida hal etilayotgani bejiz emasligi oydinlashadi. Raqamlarga e’tibor bering: yil boshida 25 ta yo‘nalish va 401 ta ko‘rsatkich asosida 9452 ta mahalla, 208 ta tuman (shahar), 14 ta hudud hamda respublika balansi shakllantirildi. Balans asosida aholi muammolarini bartaraf etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” va mahallalar “ombor kitobi” ishlab chiqildi. “Mahalla yettiligi” a’zolarining uymauy yurib o‘rganishlari natijasida infratuzilma bilan bog‘liq aniqlangan 278 mingdan ziyod muammodan qariyb 260 mingtasi (93 foiz) hamda aholining ijtimoiy masalalariga oid aniqlangan 201,5 mingga yaqin muammodan 95 foizi hal etildi. Mahallalarni ishsizlikdan xoli hududga aylantirishda “mahalla yettiligi” bilan banklar o‘rtasida hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bandlik dasturlari shakllantirilib, barcha mahallalarga 16 ta bank mas’uli biriktirildi. Mazkur

hamkorlik samarasi o‘laroq, bugungi kunda qariyb 703 ming aholi bandligi ta’minlandi. Aynan mahallalar ko‘magida Sayxunobod, Zarbdor, G‘ijduvon va Uychi tumanlari tajribalari asosida 4 million 713 mingta xonadonda tomorqadan samarali foydalanishga o‘tildi. “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida 3 millionga yaqin xonadonda qo‘shimcha daromad olish imkoniyati yaratildi. Aholini kambag‘allikdan chiqarish borasida ham mahallalarda tizimli ishlar qilinyapti. O‘tgan davr mobaynida 208 ming 442 ta oila kambag‘allikdan chiqarildi. Natijada kambag‘allik darajasi 2,4 foiz qisqarib, 8,6 foizga tushirildi. Kambag‘al oilalarning 6,5 mingdan ziyod a‘zosi doimiy ishga joylashtirildi, qariyb ikki ming nafari haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi. 6,5 mingdan ortiq oilaga 11,8 milliard so‘mlik moddiy yordamlar ko‘rsatildi, 16 ming 600 ga yaqiniga nafaqa tayinlandi. Bunday toifadagi oila a‘zolariga 25,1 milliard so‘m subsidiya, 40,3 milliard so‘m imtiyozli kreditlar ajratildi. Bosh qonunimizda “Davlat fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko‘maklashadi”, deyilgan. Shunga ko‘ra, o‘tgan davr mobaynida “mahalla yettiligi”ga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida barcha mahallalarning moddiytexnik ta’minoti xatlovdan o‘tkazildi. 250 ta mahallaga yangi bino qurildi, 392 tasi joriy, 79 tasi kapital ta’mirlandi, 59 tasi rekonstruksiya qilindi. Ayni paytda yana 211 ta mahallaga yangi bino qurilmoqda, 83 tasi joriy, 34 tasi kapital ta’mirlanib, 42 tasi rekonstruksiya qilinyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Mahalla yettiligi” tizimida 51 ming nafar xodim faoliyat yuritmoqda — Qahramon Quronboyev. [Gazeta.uz](https://gazeta.uz), 29-oktabr 2024.
2. O‘zbekistonda “mahalla yettiligi” tashkil etildi. Tizim esa to‘liq raqamlashtiriladi. [Gazeta.uz](https://gazeta.uz), 27-sentabr 2023.
3. “Mahalla yettiligi” uchun KPI belgilandi. [Gazeta.uz](https://gazeta.uz), 28-dekabr 2023.

4. “Mahalla yettiligi” va ularning asosiy vazifalari. Oliygoth.uz, 25-yanvar 2024
5. “Mahalla yettiligi” qanday vazifalarni bajarishi belgilab berildi. Zamin.uz, 26-sentabr 2023
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-martdagi 5 muhim tashabbus bo‘yicha topshiriqlari.
7. “Mahalla tizimini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qonun, 2022-yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi rasmiy sayti – www.mahalla.uz
9. Yoshlar ishlari agentligi statistik hisobotlari, 2024.
10. “Mahalla va yoshlar” jurnali, 2024-yil, 2-son.